



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

INSON BORLIG'INI TALQIN QILISHDA OBYEKTIV VA SUBYEKTIV YONDASHUVLARNING DIALEKTIK QARAMA-QARSHILIGI

Yuldashev Tazabay Niyetbay o'g'li

Innovatsion texnologiyalar universiteti, assistent-o'qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada inson borlig'ini talqin qilishda obyektiv va subyektiv yondashuvlar o'rtasidagi dialektik qarama-qarshilik tahlil qilinadi. Tadqiqotda inson borlig'ining bio-psixosotsiologik-integrativ modeli asoslanib, uning metodologik ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: inson borlig'i, ontologiya, gnoseologiya, subyektivlik, obyektivlik, ekzistensializm, dialektika, metodologiya, aksiologiya.

ДИАЛЕКТИЧЕСКОЕ СОПРОТИВЛЕНИЕ ОБЪЕКТИВНОГО И СУБЪЕКТИВНОГО ПОДХОДОВ К ИНТЕРПРЕТАЦИИ БЫТИЯ ЧЕЛОВЕКА

Юлдашев Тазабай Ниятбай угли

Университет инновационных технологий, ассистент-преподаватель

Аннотация

В данной статье анализируется диалектическое противоречие между объективным и субъективным подходами в интерпретации человеческого бытия. В исследовании обосновывается интегративная био-психо-социально-аксиологическая модель человеческого бытия и раскрывается её методологическая значимость.

Ключевые слова: человеческое бытие, онтология, субъективность, объективность, экзистенциализм, диалектика, методология, аксиология.

THE DIALECTICAL OPPOSITION OF OBJECTIVE AND SUBJECTIVE APPROACHES TO THE INTERPRETATION OF HUMAN EXISTENCE

Yuldashev Tazabay Niyetbay ugli

University of Innovative Technologies, Assistant Lecturer

Abstract

This article analyzes the dialectical opposition between objective and subjective approaches to interpreting human existence. The research substantiates the bio-psycho-social-axiological integrative model of human existence and reveals its methodological significance.

Keywords: human existence, ontology, subjectivity, objectivity, existentialism, dialectics, methodology, axiology.

Inson borlig'i muammosi falsafaning eng murakkab va fundamental kategoriyalaridan biri sifatida qadim zamonlardan buyon turli falsafiy maktablar doirasida izchil o'rganib kelinmoqda. Ushbu muammo ontologik, gnoseologik va aksiologik jihatlarining kesishgan nuqtasida joylashgan bo'lib, insonni bir vaqtning o'zida tabiiy, ijtimoiy va ruhiy mavjudot sifatida talqin qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli inson borlig'ini biryoqlama, ya'ni faqat obyektiv yoki faqat subyektiv yondashuv asosida tushuntirish yetarli emas.

Tarixiy-falsafiy rivojlanish jarayonida inson borlig'iga nisbatan ikki asosiy metodologik yondashuv shakllangan: obyektiv va subyektiv yondashuv. Klassik falsafada ustuvor bo'lgan obyektiv yondashuv insonni umumiy borliq tizimining tarkibiy qismi sifatida talqin qiladi. Aristotel insonni "ijtimoiy mavjudot" sifatida ta'riflab, uning mohiyatini jamiyat va tabiat bilan

uzviy bogʻliqlikda tushuntiradi [1; 45-b.]. Bu yondashuvda inson borligʻi individual tajribadan koʻra umumiy qonuniyatlar orqali izohlanadi.

Sharq falsafasida ham inson borligʻining obyektiv talqini chuqur rivojlangan. Ibn Sino insonni mavjudotlar ierarxiyasida alohida oʻrin egallovchi ongli mavjudot sifatida talqin qilib, uning borligʻini zaruriy va mumkin mavjudlik kategoriyalari orqali asoslaydi [2; 112-b.]. Bu yondashuv inson borligʻining umumiy ontologik tartibga boʻysunishini koʻrsatadi. Gʻarb falsafasida Gegel insonni Absolyut ruhning oʻzini anglash jarayonidagi muhim bosqich sifatida talqin qiladi [3; 89-b.]. Uning fikricha, inson borligʻi individual emas, balki umumiy tarixiy-dialektik jarayon doirasida shakllanadi. Bu esa inson borligʻining obyektiv asoslarini yanada chuqurlashtiradi.

Biroq, klassik obyektiv yondashuv insonning individual-subyektiv xususiyatlarini yetarlicha hisobga olmaydi. Inson bu yondashuvda koʻproq umumiy tizimning elementi sifatida qaraladi, uning ichki dunyosi, erkinligi va shaxsiy tajribasi esa ikkinchi darajaga tushib qoladi. Aynan shu jihat noklassik falsafaning shakllanishiga sabab boʻladi.

Noklassik falsafada, ayniqsa ekzistensializm doirasida inson borligʻiga yondashuv tubdan oʻzgaradi. Xaydegger insonni mavjudlikni anglovchi mavjudot sifatida talqin qilib, uning asosiy xususiyati oʻz borligʻini tushunish va unga munosabat bildirish qobiliyatida ekanligini taʼkidlaydi [4; 67-b.]. Sartr esa inson mohiyati uning mavjudligidan keyin shakllanishini ilgari surib, insonni oʻzini oʻzi belgilovchi erkin subyekt sifatida talqin qiladi [5; 134-b.]. Shu bilan birga, subyektiv yondashuv ham muayyan cheklolarga ega. Unda insonning biologik va ijtimoiy shartlanganligi yetarlicha eʼtiborga olinmaydi. Natijada inson borligʻi mutlaqlashtirilgan subyektivlik doirasida talqin qilinadi. Demak, klassik obyektiv yondashuv va noklassik subyektiv yondashuv oʻrtasida chuqur dialektik qarama-qarshilik mavjud. Bir tomondan, inson obyektiv borliqning bir qismi sifatida qaraladi, ikkinchi tomondan esa u oʻz borligʻini oʻzi belgilovchi subyekt sifatida talqin qilinadi. Ushbu qarama-qarshilik inson borligʻini tushunishda metodologik muammoni yuzaga keltiradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi aynan ushbu qarama-qarshilikni ilmiy asosda tahlil qilish va uni dialektik yondashuv asosida hal etish zarurati bilan belgilanadi. Zamonaviy falsafiy tadqiqotlarda inson borligʻining koʻppqatlamli tabiati eʼtirof etilayotgan boʻlsa-da, uni obyektiv va subyektiv yondashuvlar birligida tushuntiruvchi yaxlit metodologik model yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolaning maqsadi inson borligʻini talqin qilishda obyektiv va subyektiv yondashuvlarning dialektik qarama-qarshiligini aniqlash hamda ushbu qarama-qarshilik asosida inson borligʻining integrativ modelini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- klassik falsafada inson borligʻining obyektiv talqinini tahlil qilish;
- ekzistensializm da inson borligʻining subyektiv talqinini oʻrganish;
- obyektiv va subyektiv yondashuvlar oʻrtasidagi dialektik qarama-qarshilikni aniqlash;
- inson borligʻining integrativ modelini asoslash.

Mazkur tadqiqot metodologik jihatdan dialektik yondashuvga asoslanadi. Dialektika qarama-qarshiliklarni inkor etish emas, balki ularni oʻzaro bogʻliqlik va rivojlanish jarayonida tahlil qilish imkonini beradi. Aynan shu yondashuv inson borligʻini obyektiv va subyektiv jihatlar birligida tushunishga xizmat qiladi.

Inson borligʻini obyektiv asosda talqin qilish klassik falsafaning muhim metodologik xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvda inson umumiy borliq tizimining tarkibiy qismi sifatida qaraladi va uning mohiyati tabiiy, kosmik hamda ijtimoiy qonuniyatlar orqali izohlanadi. Obyektiv yondashuvning asosiy mohiyati shundan iboratki, unda inson borligʻi individual tajribadan mustaqil, umumiy mavjudlik tizimi doirasida tushuntiriladi.

Klassik falsafada inson borligʻining obyektiv talqini, avvalo, qadimgi yunon falsafasida shakllangan. Aristotel insonni “ijtimoiy mavjudot” sifatida taʼriflab, uning mohiyatini jamiyat

bilan uzviy bog'liqlikda tushuntiradi [1; 45-b.]. Unga ko'ra, inson o'z mohiyatini faqat jamiyat doirasida ro'yobga chiqaradi. Shu bois inson alohida mavjudot sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlar tizimining elementi sifatida qaraladi. Aristotelning ta'limotida har bir mavjudot o'zining mohiyati va maqsadiga ega bo'lib, insonning mohiyati uning aqlga ega mavjudot ekanligida namoyon bo'ladi. Biroq bu aql ham mustaqil emas, balki umumiy tabiiy tartibning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Demak, Aristotel falsafasida inson borlig'i biologik, ijtimoiy va aqliy jihatlarni o'z ichiga olgan murakkab tizim bo'lsa-da, uning barcha jihatlari obyektiv qonuniyatlarga bo'ysunadi.

Sharq falsafasida ham inson borlig'ining obyektiv talqini yuqori darajada rivojlangan. Xususan, Ibn Sino falsafasida inson mavjudotlar ierarxiyasida alohida o'rin egallovchi ongli mavjudot sifatida talqin qilinadi [2; 112-b.]. Unga ko'ra, mavjudlik zaruriy va mumkin shakllarga ajratiladi va inson "mumkin mavjudot" sifatida umumiy ontologik tizim doirasida tushuntiriladi. Ibn Sino insonni jism va ruh birligida talqin qiladi. Uning fikricha, inson tanasi moddiy borliqqa, ruhi esa ma'naviy borliqqa tegishlidir. Biroq bu ikki jihat bir-biridan mustaqil emas, balki yagona mavjudlik tizimi doirasida o'zaro bog'liq holda mavjud bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda, Ibn Sino falsafasida inson borlig'i ko'p qatlamli bo'lsa-da, u umumiy ontologik tartibdan tashqarida emas.

G'arb klassik falsafasining eng yuqori bosqichlaridan biri bo'lgan Gegel ta'limotida inson borlig'ining obyektiv talqini yanada chuqurlashadi. Gegel falsafasida inson Absolyut ruhning o'zini anglash jarayonidagi muhim bosqich sifatida qaraladi [3; 89-b.]. Uning fikricha, borliq doimiy rivojlanishda bo'lib, bu rivojlanish dialektik xarakterga ega. Gegel insonni individual mavjudot sifatida emas, balki umumiy ruhning ifodasi sifatida talqin qiladi. Insonning tafakkuri, ongi va amaliy faoliyati umumiy tarixiy jarayon bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli inson borlig'i individual darajada emas, balki umumiy tarixiy-dialektik jarayon doirasida tushuntiriladi. Bu yondashuv inson borlig'ining obyektiv asoslarini chuqur ochib beradi.

Klassik obyektiv yondashuvning yana bir muhim yo'nalishi ijtimoiy ontologiya bilan bog'liq bo'lib, u ayniqsa Marks falsafasida o'z ifodasini topadi. Marks insonni "ijtimoiy munosabatlar majmui" sifatida talqin qiladi [4; 23-b.]. Bu yondashuvda insonning mohiyati uning ijtimoiy faoliyati orqali belgilanadi. Marksga ko'ra, insonning ong va tafakkuri ham uning ijtimoiy mavjudligiga bog'liq. Ya'ni inson qanday yashasa, shunday fikrlaydi. Bu esa inson borlig'ining ijtimoiy-obyektiv shartlanganligini ko'rsatadi. Shu jihatdan qaraganda, Marks falsafasi inson borlig'ining obyektiv asoslarini ijtimoiy jihatdan chuqur ochib beradi.

Biroq, inson borlig'ining obyektiv talqini qanchalik kuchli bo'lmasin, uning muayyan chegaralari mavjud. Ushbu yondashuvda inson ko'proq umumiy tizimning elementi sifatida qaraladi va uning individual-subyektiv jihatlari yetarlicha yoritilmaydi. Insonning ichki dunyosi, erkinligi va shaxsiy tajribasi bu yondashuvda ikkinchi darajaga tushib qoladi. Natijada inson borlig'ining to'liq manzarasi ochilmaydi. Inson nafaqat obyektiv qonuniyatlarga bo'ysunuvchi mavjudot, balki o'z borlig'ini anglaydigan va shakllantiradigan subyektdir. Aynan shu jihat obyektiv yondashuvning metodologik chegaralarini belgilaydi.

Shunday qilib, klassik falsafada inson borlig'ining obyektiv talqini insonni umumiy borliq tizimining tarkibiy qismi sifatida tushuntirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv inson borlig'ining tabiiy, ijtimoiy va ontologik asoslarini ochib beradi, biroq uning subyektiv jihatlarni to'liq qamrab olmaydi. Aynan shu holat keyingi bosqichda subyektiv yondashuvning shakllanishiga olib keladi.

Noklassik falsafaning shakllanishi inson borlig'ini talqin qilishda tub burilish yasadi. Agar klassik falsafada inson obyektiv borliq tizimining tarkibiy qismi sifatida qaralgan bo'lsa, noklassik falsafada inson o'z borlig'ini anglovchi va uni shakllantiruvchi subyekt sifatida talqin qilina boshladi. Ushbu o'zgarish, avvalo, insonning ichki dunyosi, erkinligi va individual tajribasiga e'tiborning kuchayishi bilan bog'liqdir. Subyektiv yondashuvning eng yorqin ifodasi ekzistensializm falsafasida namoyon bo'ladi. Bu yo'nalishda inson borlig'i umumiy ontologik tizim doirasida emas, balki individual mavjudlik tajribasi asosida tushuntiriladi. Ekzistensializm

insonni tashqi omillarga to'liq bog'liq bo'lmagan, balki o'z borlig'ini o'zi belgilovchi mavjudot sifatida talqin qiladi.

Xaydegger falsafasida inson borlig'i "mavjudlikni anglovchi mavjudot" sifatida tushuntiriladi [5; 67-b.]. Uning fikricha, insonning asosiy xususiyati uning mavjudlikka bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. Inson shunchaki mavjud emas, balki o'z mavjudligini anglaydi va unga ma'no beradi. Shu jihatdan qaraganda, inson borlig'i boshqa mavjudotlardan tubdan farq qiladi. Xaydegger inson borlig'ini kundalik mavjudlik va haqiqiy mavjudlik o'rtasidagi farq orqali tushuntiradi. Kundalik mavjudlikda inson jamiyatning umumiy me'yorlariga moslashgan holda yashaydi va o'zining haqiqiy mohiyatini anglamaydi. Haqiqiy mavjudlik esa insonning o'z borlig'ini chuqur anglash va uni ongli ravishda tanlash jarayonida namoyon bo'ladi. Bu yondashuv inson borlig'ining subyektiv tabiatini ochib beradi.

Sartr falsafasida esa inson borlig'i yanada keskinroq subyektiv talqin qilinadi. Uning mashhur g'oyasiga ko'ra, insonning mohiyati uning mavjudligidan keyin shakllanadi [6; 134-b.]. Bu degani, inson avval mavjud bo'ladi, so'ngra o'z mohiyatini o'zi yaratadi. Shu sababli inson oldindan belgilangan mohiyatga ega emas, balki o'zini o'zi belgilovchi erkin subyekt hisoblanadi. Sartr insonni mutlaq erkin mavjudot sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, inson har bir tanlovi uchun to'liq javobgar bo'lib, uning hayoti oldindan belgilangan qonuniyatlarga emas, balki o'z qarorlariga bog'liqdir. Bu esa inson borlig'ining subyektiv asoslarini keskin ravishda kuchaytiradi.

Biroq, subyektiv yondashuvning kuchli tomonlari bilan bir qatorda, uning muayyan cheklovlari ham mavjud. Eng avvalo, bu yondashuvda insonning biologik va ijtimoiy shartlanganligi yetarlicha hisobga olinmaydi. Inson faqat erkin subyekt sifatida talqin qilinib, uning tabiiy va ijtimoiy bog'liqliklari ikkinchi darajaga tushib qoladi. Masalan, insonning biologik tabiatini inkor etib bo'lmaydi. Inson tanasi, fiziologik ehtiyojlari va tabiiy instinktlari uning mavjudligining muhim asosini tashkil etadi. Shu bilan birga, inson ijtimoiy muhitdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. Uning tafakkuri, qadriyatlari va xulq-atvori jamiyat bilan uzviy bog'liqdir. Subyektiv yondashuv aynan shu obyektiv omillarni yetarlicha hisobga olmagan sababli biryoqlama xarakter kasb etadi. Inson borlig'ini faqat erkinlik va individual tajriba orqali tushuntirish uning murakkab tabiatini to'liq ochib bera olmaydi. Shu nuqtai nazardan, subyektiv yondashuvni mutlaqlashtirish inson borlig'ini noto'g'ri talqin qilishga olib kelishi mumkin. Inson nafaqat o'zini o'zi belgilovchi subyekt, balki ma'lum darajada obyektiv shart-sharoitlar bilan belgilanadigan mavjudot hamdir.

Demak, obyektiv va subyektiv yondashuvlar inson borlig'ining ikki muhim jihatini aks ettiradi. Biroq ularning har biri alohida holda inson borlig'ining to'liq manzarasini bera olmaydi. Obyektiv yondashuv insonning subyektiv tomonini yetarlicha ochib bermasa, subyektiv yondashuv uning obyektiv asoslarini e'tibordan chetda qoldiradi. Aynan shu qarama-qarshilik inson borlig'ini tushunishda yangi metodologik yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Inson borlig'ini to'liq va chuqur anglash uchun obyektiv va subyektiv yondashuvlarni qarama-qarshi qo'yish emas, balki ularni dialektik birlikda ko'rib chiqish zarur.

Inson borlig'ini talqin qilishda obyektiv va subyektiv yondashuvlar o'rtasidagi qarama-qarshilik falsafiy tafakkur rivojining muhim bosqichlarini aks ettiradi. Mazkur qarama-qarshilikni oddiy tarzda birini inkor etish orqali hal etish mumkin emas, chunki har ikki yondashuv inson borlig'ining muayyan jihatlarini ifodalaydi. Shu bois ularni dialektik birlikda ko'rib chiqish zarur. Dialektik yondashuvga ko'ra, qarama-qarshilik rivojlanish manbai hisoblanadi. Obyektiv va subyektiv yondashuvlar o'rtasidagi ziddiyat ham inson borlig'ini chuqurroq anglash imkonini yaratadi. Mazkur ziddiyatni hal etish natijasida inson borlig'ining yangi sifat darajasi — integrativ tushunchasi shakllanadi.

Mazkur tadqiqotda inson borlig'ining integrativ modeli dialektik sintez natijasi sifatida asoslanadi. Ushbu modelga ko'ra, inson borlig'i bio-psixo-ijtimoiy-aksiologik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bu tizim inson borlig'ining turli darajalarini o'zaro bog'liq va o'zaro shartlangan holda birlashtiradi. Mazkur modelning nazariy asosini tizimlilik prinsipi tashkil etadi.

Tizimli yondashuvga ko'ra, inson borlig'i alohida komponentlarning mexanik yig'indisi emas, balki ichki tuzilishga ega bo'lgan murakkab tizimdir. Ushbu tizimning har bir elementi boshqa elementlar bilan o'zaro aloqada mavjud bo'ladi va ular birgalikda yagona butunlikni tashkil etadi.

Birinchi daraja — biologik qatlam inson borlig'ining ontologik asosini tashkil etadi. Inson tirik organizm sifatida tabiiy qonuniyatlarga bo'ysunadi. Uning fiziologik ehtiyojlari va organizm faoliyati mavjudlikning zaruriy sharti hisoblanadi. Shu sababli inson borlig'ini biologik asosdan ajratib talqin qilish metodologik jihatdan noto'g'ri hisoblanadi.

Ikkinchi daraja — psixik qatlam inson borlig'ining subyektiv jihatini ifodalaydi. Inson ongga ega bo'lgan mavjudot sifatida o'z borlig'ini anglaydi, unga munosabat bildiradi va uni ma'nolaydi. Psixik jarayonlar insonning individual tajribasi, erkinligi va o'zini o'zi anglash jarayonlari bilan bog'liqdir. Bu qatlam subyektiv yondashuvning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Uchinchi daraja — ijtimoiy qatlam inson borlig'ining tashkiliy va munosabatlar tizimini ifodalaydi. Inson jamiyatdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. Uning tafakkuri, xulq-atvori va qadriyatlari ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi. Shu jihatdan inson borlig'i ijtimoiy shartlangan xarakterga ega [4; 23-b.].

To'rtinchi daraja — aksiologik qatlam inson borlig'ining ma'naviy va qadriyatli o'lchamini tashkil etadi. Inson nafaqat mavjud bo'ladi, balki o'z mavjudligiga ma'no beradi. U qadriyatlar yaratadi, maqsad qo'yadi va o'z hayotini ongli ravishda tashkil etadi. Aynan shu jihat insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turadi.

Mazkur qatlamlar o'zaro mustaqil emas, balki dialektik birlikda mavjud. Biologik asos psixik jarayonlar uchun sharoit yaratadi, psixik faoliyat esa ijtimoiy munosabatlar orqali shakllanadi. Ijtimoiy muhit esa insonning aksiologik tizimini belgilaydi. Shu tariqa inson borlig'i ko'p qatlamli, o'zaro shartlangan va dinamik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur modelning muhim metodologik prinsipi — dialektik birlik prinsipidir. Ushbu prinsipga ko'ra, inson borlig'ining obyektiv va subyektiv jihatlari qarama-qarshi emas, balki o'zaro to'ldiruvchi xarakterga ega. Inson bir vaqtning o'zida ham obyektiv shartlangan, ham subyektiv faol mavjudotdir. Shuningdek, ushbu model rivojlanish prinsipiga ham asoslanadi. Inson borlig'i statik emas, balki doimiy o'zgarish va rivojlanish jarayonida bo'ladi. Bu rivojlanish biologik, psixik va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Shu sababli inson borlig'ini jarayon sifatida talqin qilish muhim metodologik ahamiyatga ega.

Mazkur integrativ modelning ilmiy yangiligi shundaki, u inson borlig'ini alohida yondashuvlar asosida emas, balki ularning dialektik sintezi asosida tushuntiradi. Bu model inson borlig'ini biryoqlama talqin qilishdan voz kechib, uni ko'p qatlamli va tizimli hodisa sifatida asoslaydi. Shu bilan birga, modelning amaliy ahamiyati ham muhimdir. U ta'lim, tarbiya va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarida insonni kompleks tarzda o'rganish imkonini beradi. Insonning biologik, psixologik va ijtimoiy ehtiyojlarini birgalikda hisobga olish orqali yanada samarali ijtimoiy tizimlarni shakllantirish mumkin. Shunday qilib, inson borlig'ining integrativ modeli obyektiv va subyektiv yondashuvlar o'rtasidagi dialektik qarama-qarshilikni bartaraf etuvchi metodologik asos sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu model inson borlig'ining murakkab, ko'p qatlamli va dinamik tabiatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot inson borlig'ini talqin qilishda obyektiv va subyektiv yondashuvlar o'rtasidagi dialektik qarama-qarshilikni tahlil qilishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijasida inson borlig'ining murakkab va ko'p qatlamli tabiati aniqlandi hamda uni biryoqlama talqin qilishning metodologik jihatdan yetarli emasligi asoslab berildi. Tadqiqot davomida klassik falsafada shakllangan obyektiv yondashuvning nazariy asoslari o'rganildi. Aristotel, Ibn Sino va Gegel ta'limotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu yondashuv insonni umumiy borliq tizimining tarkibiy qismi sifatida talqin qiladi. Inson borlig'i tabiiy, ijtimoiy va ontologik qonuniyatlarga bilan belgilanadi. Bu yondashuv inson borlig'ining obyektiv asoslarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi, biroq uning individual-subyektiv jihatlari to'liq qamrab olmaydi. Shuningdek, noklassik falsafada shakllangan subyektiv yondashuv ham tahlil qilindi. Xaydegger va Sartr

qarashlari asosida inson o'z borlig'ini anglovchi va uni shakllantiruvchi erkin subyekt sifatida talqin qilinishi ko'rsatildi. Bu yondashuv insonning ichki dunyosi, erkinligi va individual tajribasini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, subyektiv yondashuv insonning biologik va ijtimoiy shartlanganligini yetarlicha hisobga olmaydi.

Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, obyektiv va subyektiv yondashuvlar inson borlig'ining ikki muhim, ammo biryoqlama talqinini ifodalaydi. Ushbu yondashuvlarning har biri inson borlig'ining ma'lum jihatlarini ochib beradi, biroq alohida holda uning to'liq manzarasini bera olmaydi. Shu bois inson borlig'ini tushunishda ushbu yondashuvlarni qarama-qarshi qo'yish emas, balki ularni dialektik birlikda tahlil qilish zarur. Mazkur qarama-qarshilikni hal etish maqsadida inson borlig'ining integrativ modeli taklif etildi. Ushbu modelga ko'ra, inson borlig'i bio-psixo-ijtimoiy-aksiologik tizim sifatida talqin qilinadi. Bu tizim inson borlig'ining biologik, psixik, ijtimoiy va aksiologik qatlamlarini o'zaro bog'liq holda birlashtiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, inson borlig'ining biologik jihati uning mavjudligining tabiiy asosini tashkil etsa, psixik jihati uning ongli faoliyatini ifodalaydi. Ijtimoiy qatlam insonning jamiyat bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatsa, aksiologik qatlam uning qadriyatlar yaratish va hayotiga ma'no berish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu qatlamlarning o'zaro bog'liqligi inson borlig'ining murakkab tizim sifatida namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi inson borlig'ini alohida yondashuvlar asosida emas, balki ularning dialektik sintezi asosida tushuntirishdan iborat. Taklif etilgan integrativ model inson borlig'ini ko'p qatlamli, tizimli va dinamik hodisa sifatida asoslashga imkon beradi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, u inson borlig'ini talqin qilishda obyektiv va subyektiv yondashuvlar o'rtasidagi qarama-qarshilikni yangi metodologik asosda hal etishni taklif etadi. Bu esa falsafiy antropologiya va ontologiya sohalarida olib borilayotgan tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Amaliy jihatdan esa mazkur model ta'lim, tarbiya va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarida insonni kompleks tarzda o'rganish imkonini beradi. Insonning biologik, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini birgalikda hisobga olish orqali yanada samarali ijtimoiy tizimlarni shakllantirish mumkin.

Shunday qilib, inson borlig'ining integrativ modeli obyektiv va subyektiv yondashuvlar o'rtasidagi dialektik qarama-qarshilikni bartaraf etuvchi nazariy va metodologik asos sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu model inson borlig'ining murakkab va ko'p qatlamli tabiatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda zamonaviy falsafiy tadqiqotlar uchun yangi istiqbollarni ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аристотель. Метафизика // Сочинения: в 4 т. – Москва: Мысль, 1976.
2. Ибн Сина. Избранные философские произведения. – Москва: Наука, 1980.
3. Гегель Г.В.Ф. Феноменология духа. – Москва: Наука, 1977.
4. Маркс К. Экономико-философские рукописи 1844 года. – Москва: Политиздат, 1988.
5. Хайдеггер М. Бытие и время. – Москва: Ad Marginem, 1997.
6. Сартр Ж.П. Бытие и ничто. – Москва: Республика, 2000.